

**Buxoro davlat pedagogika Ingliz tili va
adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi
Safoyeva Sadokat Nasillovna taqrizi
ostida**

Erkinova Asila Akmalovna
Buxoro davlat pedagogika instituti
talabasi

Email: aerkinova054@gmail.com

ONLAYN TA'LIMNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada onlayn ta'lim tizimining foydali tomonlari va zararli jihatlari tahlil qilinadi. Rivojlanib borayotgan zamonaviy texnologiyalarning o'qitish tizimiga b'olgan ta'sirlari bayon qilinadi. Onlayn ta'limning bir qancha kamchiliklari b'olsa-da, u o'rgatuvchi va o'rganuvchiga birdek qulayliklarga sabab b'oladi va vaqtning tejalishiga olib keladi. Maqolada turli tadqiqot va tahlillar natijasida onlayn ta'lim tizimining samaradorligi yuqori baholanadi.

Kalit so'zlar: onlayn tizim, raqamli texnologiyalar, an'anaviy ta'lim, zamonaviy o'qitish usullari, ta'lim sifati.

Kirish: Raqamli texnologiyalar yurtimizni tubdan o'zgartiryapti desak mubolag'a b'olmaydi. Zamonaviy dunyoda ta'lim jarayoni raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib bormoqda. An'anaviy ta'lim tizimi bilan bir qatorda onlayn ta'lim ham keng ommalashmoqda. Ayniqsa, COVID-19 natijasida yurtimizda barcha o'quv oliygohlari masofaviy ya'ni onlayn tizimga o'tishi munosabati bilan, onlayn ta'limning afzalliklari barchamizga namoyon b'oldi. Biroq onlayn ta'lim ham ijobiy, ham salbiy oqibatlarini olib keladi. Ushbu maqola onlayn ta'lim shaklining asosiy afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qiladi.

Materiallar va uslublar: Ushbu tadqiqot davomida xalqaro ta'lim tashkilotlari hisobotlari, ilmiy maqolalar, amaliy tajribalar va statistik ma'lumotlardan foydalanildi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil usuli va intervyu natijalari asosida onlayn ta'limning samaradorligi baholandi.

Natijalar va muhokamalar:

1. Onlayn ta'limning afzalliklari

1.1. Ta'lim olishda erkinlik.

Onlayn ta'limning eng ustuvor afzalliklaridan biri talabalar ta'lim olish uchun maxsus joyga borishlari kerak emas, ular istalgan joydan turib ham bemalol, erkin holda bilim olishlari mumkin. Ayniqsa, bu chekka hududlarda yashovchilar uchun qulay va samaraliroq.

1.2. Ta'lim olishda moslashuvchanlik

An'anaviy ta'limdagi eng katta muammo — bu barcha uchun bir xil bilim berish uslubi ishlatilinishidir. Istalgan sinfda tengdoshlaridan ortda qolgan yoki oldinga o'zib ketgan o'quvchilarni uchratishimiz mumkin. Hatto, eng yaxshi o'qituvchi ham qachonlardir o'zidan ushbu savolni so'ragan: "Men, ko'proq o'rganuvchilar mavzuni tushunishi uchun sekinlashishim kerakmi yoki o'quv-rejani tugatish uchun mavzularni tezroq o'tishim kerakmi?" Mana shuning uchun, ular tezlik va ta'lim berishda o'rta holatda saqlashga harakat qiladi. Onlayn ta'lim bu muammoni hal qila oladi. Negaki, u individual ta'lim berishga asoslangan va ta'lim olish jarayoni o'quvchi hamda uning moslashuvchanligiga qarab o'zgaradi.

1.3. Vaqt va mablagʻ tejallishi.

Anʼanaviy taʼlim tizimidam farqli ravishda, onlayn bilim olish ham qisqa vaqtni, ham kamroq mablagʻni talab etadi.

1.4. Xalqaro taʼlim olish imkoniyati

Onlayn taʼlim bizga dunyoning yetakchi universitetlari va professorlaridan taʼlim olish imkoniyatini beradi. Biz dunyodagi top universitetlardan bilim olish uchun ósha davlatlarga borishimiz kerak emas, biz raqamli texnologiyalardan foydalangan holda, óz qulay sharoitimizda bilim olish imkoniyatiga egamiz.

Bu afzalliklar onlayn taʼlim tizimining yanada rivojlanishiga va unga bólган talab yuqori bólishiga olib keladi.

Shuningdek, 2022-yilning oktabrida hukumat qarori bilan OTMlarda masofaviy taʼlimni joriy etish toʻgʻrisidagi nizom tasdiqlandi. Unga koʻra, 2023/2024 oʻquv yilidan davlat va xususiy oliygohlarga masofaviy taʼlim yoʻnalishida kadrlar tayyorlashga ruxsat berildi.

Mutaxassislar onlayn taʼlimning samaradorligini bir nechta omillar bilan izohlagan. Xususan, ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokini oshirishi, nogironligi boʻlganlarga oliy taʼlim imkoniyatlarni taqdim etishi hamda mamlakatda oliy taʼlim bilan qamrab olish darajasini oshirishi shular jumlasidan.

2. Onlayn taʼlimning kamchiliklari.

2.1. Yuzma-yuz muloqotning yetishmasligi.

Talaba va oʻqituvchi órtasida jonli muloqotning yetishmasligi sababli, óquv jarayonida tushunmovchiliklar va motivatsiyaning pasayishi kelib chiqishi mumkin.

2.2. Intizom va óz-ózin boshqarish.

Baʼzi talabalar mustaqil taʼlim olishga moslashishlari, óquv jarayonida masʼuliyatli bólishlari qiyin bóladi. Bundan tashqari onlayn taʼlimda tartib-intizomni saqlash ham muhim ahamiyatga ega.

2.3 Texnik muammolar va amaliy mashgʻulotning cheklanganligi.

Onlayn taʼlim sifati texnik infratuzilma va internet tezligiga bogʻliq. Baʼzi hududlarda internetning yetarli emasligi yoki elektr taʼminoti uzilishi oʻquv jarayonini qiyinlashtirishi mumkin.

Laboratoriya ishi, tibbiy mashgʻulotlar yoki texnik mutaxassisliklar kabi sohalarda onlayn taʼlim yetarli darajada samarali emas. Chunki bunday yoʻnalishlar koʻproq amaliy tajribaga asoslanadi.

Xulosa

Sónghi yillarda onlayn taʼlim zamonaviy taʼlimning ajralmas qismi ból bormoqda desak yanglishmagan bólamiz. Uning afzalliklari orasida qulaylik, vaqt tejash va xalqaro taʼlim olish imkoniyati mavjud. Bundan tashqari Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 6-noyabrdagi

“O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni (keyingi o‘rinlarda — Farmon) ijrosini ta’minlash maqsadida: (14-bandning uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son): "Barcha oliy ta’lim tashkilotlarida axborot-resurs markazlari bazasida mavjud darslik, o‘quv-uslubiy va boshqa qo‘llanmalar raqamli formatga o‘tkazilib, ularning elektron platformasi shakllantirilishini ta’minlasin hamda ular bo‘yicha raqamli yagona axborot qidiruv tizimini joriy qilsin". Bundan kelib chiqadiki, onlayn ta’lim tizimi har tomonlama qulay va samaraliroq. Biroq, yuzma-yuz muloqotning yetishmasligi, texnik muammolar va intizom bilan bog‘liq qiyinchiliklar ham bor. Eng samarali ta’lim shakli an’anaviy va onlayn ta’lim elementlarini birlashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UNESCO – "Digital Education and Learning Trends", 2023.
2. World Economic Forum – "The Future of Online Education", 2022.
3. Harvard University – "Online Learning and Student Engagement", 2023.
4. The Journal of Distance Learning – "Effectiveness of Online Education", 2022.
5. <https://abt.uz/blog/onlayn-talimning-afzalliklari?>
6. <https://sinaps.uz/maqola/12028/>
7. <https://www.spot.uz/oz/2023/12/25/private-education/>
8. <https://president.uz/oz/lists/view/3864>
9. <https://lex.uz/docs/-5085887>
10. Terry Anderson "The Theory and Practice of Online Learning" (2008)
11. <https://ilmiyxabarlar.uz/>
12. <https://abt.uz/blog/onlayn-talimning-afzalliklari>